



O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

“JADIDLARNING O'ZBEK TILI, ADABIYOTI VA SAN'ATI RIVOJIDAGI O'RNI”

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy

anjumani

TO'PLAMI

2025-yil 12-iyun



- Ayrim platformalarda izlash tizimi mukammal emas;
- Manbalarga ilmiy sharhlar va yo‘llanmalar etarli emas;
- Elektron resurslar ARMLarda yaxlit tizim sifatida joriy qilinmagan.

Takliflar:

- Yagona "Jadidchilik elektron portali"ni yaratish;
 - ARMLarda tematik ma'lumotlar bazasini shakllantirish;
 - Jadidchilik tarixini o'rganish bo'yicha multimediamiy ta'lim kurslari tashkil etish;
 - Elektron kitoblarga sharh, lug'at va QR-kodli tavsiyalar joriy etish.
- Ushbu takliflarni amalga oshirish jadidchilikni o'rganish jarayonini yanada samarali qilishga xizmat qiladi.

Yuqorida keltirilgan tahlillardan ko'rinadiki, Axborot-resurs markazlari jadidlar merosini saqlash, targ'ib etish va o'rganishda muhim o'rin tutadi. Ular orqali talabalar va tadqiqotchilar jadidlarning boy merosiga oson va qulay etishish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Elektron resurslar bilimni mustaqil o'rganish, izlanish va tadqiqot olib borishda muhim vositaga aylandi.

Shu bois kelgusida mazkur yo'nalishda maxsus platformalarni yaratish, mavjud manbalarni yaxlitlashtirish, yangi texnologiyalardan foydalangan holda jadidlar asarlarini ommalashtirish maqsadga muvofiqdir. Bu esa milliy o'zlikni anglash va ma'naviy qadriyatlarni tiklashda muhim o'rin tutadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent: Turon zamin, 2023. – 96 b.
2. Mahmudxo'ja Behbudiy. Padarkalonlarimiz. Toshkent: Akademnashr, 2021. – 312 b.
3. Rahimov A. Jadidchilik harakati: tarix va tahlil. 2022. 10 may.
4. ZiyonET – <https://ziyonet.uz>
3. Kitob.uz elektron kutubxonasi – <https://kitob.uz>
4. O'zbekiston Milliy kutubxonasi – <https://navi.uz>
5. Cyberleninka – <https://cyberleninka.ru>
6. JSTOR – <https://www.jstor.org>

Ziyodaxon USMANOVA,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti doktoranti

PORTRET TASVIRIDA BADIY USLUBNING NAMOYON BO'LISHI

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston xalq shoiri Xurshid Davronning jadid adabiyotining buyuk namoyondasi A.Qodiriy ijodidan, ta'sirlanib yozgan she'rlari tahlilga tortilgan.

Kalit soʻzlar: *A.Qodiriy, sheʼriyat, jadid adabiyoti, yangi oʻzbek adabiyotining shakllanishi va takomili.*

Abstract. *In this article, the poems written by the national poet of Uzbekistan Khurshid Davron, influenced by the work and image of A. Qadiri, a great representative of modern literature, are analyzed.*

Key words: *A. Qadiri, poetry, modern literature, formation and development of new Uzbek literature.*

Xurshid Davron ijodida jadidchilik mavzusi keng oʻrin egallagan mavzulardan biri hisoblanadi. Shoirga jadid adabiyoti namoyondalarining jasorati, ilm-fan yoʻlida qilgan fidoyiliklari, xalqni gʻaflat uyqusidan uygʻotishdagi sayʼ-harakatlari, yaratgan qahramonlari siymosida jamiyat hayotining mudhish va ayanchli hayotini toʻla aks ettirishi, ziyoli qatlamning ijtimoiy muammolarga munosabati, ijodkorlar ongi va tafakkurida XX asr boshlarida yuz bergan oʻzgarishlar oʻz taʼsirini oʻtkazdi.

Xurshid Davron xotira janrida barakali ijod qilgan. Sheʼr markazida badiiy xotira turadi. Ijodkor Qodiriy surati zamirida oʻtmish bilan tillashadi, oʻzligini anglashga harakat qiladi. Sheʼrdagi “soʻnggi surat” ifodasi Qodiriyga tegishli boʻlsa-da, umumiy tarzda barcha millatparvar ziyolilarning soʻnggi nafaslariga qadar xalq ozodligiga, milliy mustaqilligiga ishonchining ramzi sanaladi. Shuning uchun shoir “tirik” insonlarning emas, “jonsiz” suratning suhbatiga oshiqadi.

Buncha alam,

Buncha muhabbat...

Qorachiqda yonar hasrati.

Sen nimani tilaysan mendan,

Qodiriyning soʻnggi surati? [1, 7].

Ijodkor Qodiriyning soʻnggi suratiga murajaat tarzida avvalo oʻz vijdoniga murojaat qilmoqda. Bu satrlar lirik qahramonning yuragidagi ziddiyatli tuygʻularni ochib beradi. Alam va muhabbat bir vaqtda mavjud: inqilobdan milliy ozodlikni koʻzlagan ezilgan xalqning ahvolidan alamzadalik, milliy ozodlikka boʻlgan intilish va muhabbat yurakning zohiriy ifodasi boʻlgan qorachiqda mujassam. Ruhiy kechinma, ichki ziddiyat, muhabbat va alam, sogʻinch va umidsizlik tarixiy-estetik xotira bilan uygʻunlashib ketgan. Qodiriy qalbidagi muhabbat va alam bir butun boʻlib, uning nigohida (“qorachiqda”) doimiy yonuvchi bir hasratga aylanadi. Sheʼr yakunidagi murojaat tarzidagi “Qodiriyning soʻnggi surati” degan satrlar individuallikdan chiqib, butun xalqning dard-hasratiga ulanib ketadi.

Yoki soʻylab bermoqchimisan

Kumushbibi, Otabek dardin,

Yo oʻz darding soʻylamoqchisan,

Qodiriyning soʻnggi surati.

Shoir Qodiriy shaxsiyatini tarixga muhrlagan asari “Oʻtgan kunlar” romani qahramonlari Kumush va Otabek obrazlari vositasida muallif taqdirining falsafiy, ramziy maʼnolarini ham yoritishga harakat qiladi. Otabek shunchaki bir obraz emas, u jamiyat hayotini izga solishga harakat qilayotgan ilgʻor fikrli shaxsni ifodalaydi.

Roman qahramonlari taqdiri misolida ijtimoiy adolat tarozisining buzilishi oqibatlaridan, millat fojiasidan soʻz ochadi. Kumushbibi va Otabekning dardi – bu nafaqat sevgi fojiasi, balki oʻzbek xalqining intellektual uygʻonishi bilan ijtimoiy zulm toʻqnashuvidir. Sheʼr Abdulla Qodiriyning ijodi va shaxsiyatiga berilgan yuksak poetik yodnoma sifatida baholanishi mumkin. Bu erda surat ramziy maʼno tashiydi. Surat detal obrazlar sirasiga kiruvchi motiv boʻlib, unda shoir jadidlarning umumiy qiyofasi va soʻnggi umidlarini gavdalantiradi. Odatda obrazning bu turiga adabiyotshunoslikda quyidagicha taʼif beriladi. “Detal obrazlar (tafsilotlar, narsa-buyumlar, portret, peyzaj)dan badiiy reallikning ikkinchi qatlami – ichki yoki tashki harakatdan tarkib topuvchi voqea-hodisalar obrazidan oʻsib chiqadi. Yaʼni badiiy reallik gʻishtchalardan – butunni tashkil qiluvchi unsurlardan

tashkil topadi, bu unsurlar oʻzaro predmetlilik darajasi, tasvir koʻlami jihatidan farqlanadi” [2, 47].

*Tunlar jimjit,
Uzundir garchand,
Tugamaydi dillar suhbat.
Sheʼr oʻqisam tinglaysan oʻychan,
Qodiriyning soʻnggi surati.*

Tunlarning uzun va jimjitligi ifodasida tungi sukunat va vaqtning choʻzilishi orqali dard, sogʻinch, oʻy-fikr holatini tasvirlaydi. “Tun” – bu koʻpincha falsafiy va ruhiy iztirob manzarasi boʻlib kelgan timsol. Jimjit tun – oʻzlik bilan yuzma-yuz qolgan insonning ruhiy holatini anglatadi. Shunday uzun tunda “Dillar suhbatining tugamasligi” psixologik yaqinlik, ichki muloqot, millat xotirasi bilan yashash, xalq dardini his qilishga ishora qiladi. Suhbat faqat dillar oʻrtasida boʻlayotgani yoʻq. U Xurshid Davron va Qodiriy, ilhom va qalb ogʻrigʻi, iztirob va ilinj oʻrtasidagi muloqotdir. Shoir sheʼr oʻqiydi, surat oʻychan tinglaydi. Aslida surat jonsiz predmet boʻlgani uchun unda oʻychanlik boʻlmaydi. Ammo bugunning dardi shunchalik teranki, u oʻtmish ajdodlarning ruhini ham bezovta qila olar darajada kuchga ega. Xalq ogʻir damlarida oʻtmish ajdodlarning ruhidan panoh istashi tabiiy holat.

*Yoʻllarimda uchrasa xato,
Qiyinab qoʻysa elim hasrati,
Kelib sendan tilayman panoh,
Qodiriyning soʻnggi surati.*

Sheʼr shoir ijodining tongotarida yozilgan boʻlishiga qaramay, unda dard toʻla ohanglar, buyuk salaflar yoʻlidan borishdagi jurʼat va qatʼiyatning keskin ifodalanishi oʻzbek adabiyotiga zabardast qadamlar bilan yangi avlodning kirib kelayotganidan darak edi. Lirik qahramon xato qilishdan qoʻrqmaydi, el dardiga elka tutadi, bu yoʻlda qiynalgudek boʻlsa, panoh istab boruvchi ustozlari borligiga qatʼiy ishonch bildiradi.

“Xatolar” deganda shoir odamzodning hayot yoʻlida uchraydigan adashuvlarini nazarda tutadi. Ammo bu shunchaki oddiy hayotiy xato emas. Bu – milliy ong yoʻlida, xalq xizmatida, Vatan oldidagi burchda yoʻl qoʻyilgan ruhiy ogʻish. Lirik qahramon bu yoʻldagi adashishlarda oʻzini aybdor his qilmoqda. Bu ichki iztirob, bu vijdon azobi uni chuqurlikka etaklaydi.

“Qiynab qo‘ysa elim hasrati...” – bu satrda xalq, vatan, millat dardi o‘ziga xos badiiy ifodani topgan. Bu hasrat – yurtni sog‘inish emas, balki xalq uchun biror narsa qila olmaslik dardi, ajdodlarga munosib bo‘la olmaslik azobi. Shoir o‘zini xalq oldida javobgar his qiladi va bu tuyg‘u uning qalbini ezadi. Va nihoyat, ikki og‘ir satrdan so‘ng shoir najot istab buyuk daho yoniga kelishini yana bir bor ta’kidlaydi. Bu erda Qodiriy surati – oddiy portret emas. U – vijdon timsoli, milliy uyg‘onish ruhining sokin, ammo tirik nigohi. Shoir bu suratga qarab, o‘ziga yo‘l topmoqchi. Go‘yo suratdagi ko‘zlar orqali Qodiriy unga: “Yo‘ling to‘g‘ri bo‘lsin, xalqingni sev!” deb najot yo‘lini ko‘rsatmoqda. Bu panoh - ruhiy, ma’naviy, axloqiy panohdir.

Adabiyot – bu makon va zamondan qat’iy nazar yaqin darddosh ko‘ngillarni, fikriy yaqin insonlarni birlashtiruvchi maydondir. Xalq taqdirini qalbida his qilgan ijodkorlar esa bu maydonda birlashadi, uning aks-sadosiga quloq tutadi, kerak bo‘lsa shu yo‘lda jon beradi. Ularning timsoli, ruhi ba’zida bir she’rda, ba’zida esa birgina suratda abadiyatga muhrlanadi. Xurshid Davronning “Qodiriyning so‘nggi surati” nomli she’ri ham aynan shunday ilohiy sukunatni tasvirlaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Xurshid Davron. Bahordan bir kun oldin: she’rlar, rivoyatlar, tarjimalar. – T.: “Sharq”, 1997.
2. Quronov D. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – T.: “Akademnashr”, 2013.
3. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. – T.: “O‘zbekiston”, 2008.

Farrux USMONOV,

*Ashula va raqs mutaxassisligi 1-kurs magistranti
O‘zDSMI*

ABDURAUF FITRATNING MAQOM SAN’ATIGA OID ILMIY YONDASHUVI: TARIXIY-MADANIY MEROSI VA ZAMONAVIY AHAMIYATI

Annotatsiya. Mazkur maqola o‘zbek musiqa madaniyatiga ulkan hissa qo‘shgan jadid ma’rifatparvari Abdurauf Fitratning maqom san’atiga oid qarashlarini ilmiy tahlil etadi. Xususan, u yaratgan "O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi" asari asosida Shashmaqom tizimi, uning estetik-falsafiy qatlamlari, milliy o‘zlik bilan bog‘liqligi va bugungi ta’lim tizimidagi ahamiyati yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Abdurauf Fitrat, maqom san’ati, Shashmaqom, estetik tafakkur, milliy xotira, musiqashunoslik, madaniy meros, pedagogik ta’sir, metodologik asos.

Abstract. This article provides a scientific analysis of the views of Abdurauf Fitrat, a modern enlightener who made a great contribution to Uzbek musical culture, on the art of maqom. In particular, based on his work “Uzbek classical music and its history”, the Shashmaqom system, its aesthetic and philosophical layers, its connection with national identity and its significance in today's education system are highlighted.

		rivojlanishida tutgan o‘rni	
41	<i>Adhamxo‘ja Abdullaxo‘jaev</i>	Is’hoqxon To‘ra Ibrat g‘oyalarining yangi O‘zbekistondagi islohotlar bilan uzviyligi (“tarixi madaniyat” asari misolida)	177
42	<i>Dilbar Shomuradova</i>	The role of jadids in language education: a historical and pedagogical perspective	182
43	<i>Madina Axmadjanova</i>	Turkistonda til va grammatika (jadid olimlari tadqiqotlari misolida)	186
44	<i>Umida Gafurova</i>	Jadidchilik harakati: tarixiy zarurat va ma’naviy yangilanish manbasi	190
45	<i>Nargiza Palvanova</i>	Jadid adabiyotini lingvopoetik tahlili asosida o‘rganish	192
46	<i>D.Baxronov, Dildora Raximova</i>	Mahmudxo‘ja Behbudiy qarashlarining ijtimoiy-falsafiy tahlili	197
47	<i>Людмила Муминходжаева</i>	Вклад джадидских просветителей в культурную и информационную сферу Туркестана	201
48	<i>Marg‘uba Qodirova</i>	Elbek (Mashriq Yunusov): xx asr boshlaridagi O‘zbek bolalar adabiyotining shakllanishi, masalchilik janrining rivoji	206
49	<i>Shavkat Bobomurodov</i>	Cho‘lpon va Fitratning matni topilmagan pyesalari	211
50	<i>Xilola Nyutonova</i>	Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” dramasi mazmunini zamonaviy ta’lim texnologiyalari asosida o‘rganishning didaktik imkoniyatlari	214
51	<i>Gulnoza Bobonazarova</i>	XX asr boshlaridagi milliy uyg‘onish adabiyoti vakili: Mahmudxo‘ja Behbudiy	217
52	<i>Gulnura To‘liboyeva</i>	Badiiy obraz – milliy ruh ifodachisi sifatida	221
53	<i>Farog‘at Dadabayeva</i>	Abdurauf Fitrat she’rlarida tahlil va talqin	225
54	<i>Gulbahor Qushaqova</i>	Zavqiy asarlarida sifatlashlarning o‘rni	228
55	<i>Zilola Ergasheva</i>	Jadid adabiyotida qo‘llangan obrazli ifodalar xususida	231
56	<i>Yusuf Eshmurzayev</i>	Jadidlarning o‘zbek musiqa san’atidagi o‘rni	235
57	<i>Nilufar Ro‘ziyeva</i>	Axborot-resurs markazlarida jadidchilik tarixini o‘rganish uchun yaratilgan elektron resurslar tahlili	238
58	<i>Ziyodaxon Usmanova</i>	Portret tasvirida badiiy uslubning namoyon bo‘lishi	241
59	<i>Farrux Usmonov</i>	Abdurauf Fitratning maqom san’atiga oid	243